



PSIXOLOGIYADA ONG TUSHUNCHASI, UNING SHAKLLANISHI PSIXOLOGIK VAZIFALARI

Mirzanazarova Dilfuza Qurbonovna

Surxondaryo viloyati Boysun tumani

12-umumiy o'rta ta'lim maktabi amaliyotchi psixologi

Annotasiya: bu maqola psixika va ongning taraqqiyoti, ong xarakteristikasi, va ular haqida ma'lumot beradi.

Kalit so'zlar: psixika, ong, ong xarakteristikasi, ong taraqqiyoti, materiya, fenomen

KIRISH

Ong- psixik faoliyatning oliy shakli. U faqat insonga xos fenomendir. Ong, uning mohiyati masalasi eng qadimgi muammolardan biri. Ongni dastlab diniy va mifologik qarashlar doirasida tushuntirishga uringanlar. Ongni diniy tushuntirish uni ilohiy hodisa, Xudo yaratgan mo'jiza tarzida talqin qilishga asoslanadi. Ko'pgina dinlarda inson ongi buyuk ilohiy aqlning namoyon bo'lish shakli tarzida tavsiflanadi. Bunday qarashlarning ildizi juda qad. bo'lsada, ular hamon o'zining ko'plab tarafdorlariga ega. Kimki olam va odam yaratilganligini tan olar ekan, ong ham yaratganning qudrati deb hisoblaydi.

Ongning mohiyatini izohlashda ikkinchi yo'nalish-bu ong moddiy olamni inson miyasida aks etishi deb tushunish, uni inson tanasi faoliyati bilan bog'lab talqin etishdir. Ayni vaqtda materialistik yo'nalish nomini olgan bunday yondashuvlar doirasida ongning mohiyatini buzib talqin qilish hollari ham paydo bo'ldi. Vulgar materializm deb nom olgan oqim namoyandalarining fikricha, xuddi jigar saf-roni ishlab chiqargani kabi, miya ham ongni ishlab chiqarar emish. Bunday yondashuv natijasida ong ideal emas, moddiy hodisa degan xulosa kelib chiqadi. Vaholanki, safroni ko'rish mumkin, ammo ongni ko'rib ham, ushlab ham bo'lmaydi. Aslida ong



tarixi insonning inson bo‘lib shakllana boshlashi tarixi bilan bog‘liqdir. Inson ham biologik, ham ijtimoiy mavjudot ekan, demak, ong ham biologik va ijtimoiy taraqqiyot mahsulidir. Ong insonning fikr va hislari, sezgilari, tasavvurlari, irodasi va karashlaridan tashkil topgan. O‘z-o‘zini anglash, xotira, iroda, nutq ongning asosiy jihatlaridir.

Hozirgi zamon fani ong materiyaninguzoq davom etgan evolyusiyasining natijasi ekanligini tan oladi. Materiya, tabiat hamma vaqt mavjud bo‘lib kelgan, inson esa moddiy dunyoning nisbatan so‘nggi taraqqiyotining mahsulidir. Materiya taraqqiyoti, fikrlay oladigan insonning paydo bo‘lishi uchun bir necha million yillar kerak bo‘lgan. Ong tabiat taraqqiyoti mahsuli, materiyaning xossasidir, barcha materiyaning emas, balki oliy darajada tashkil topgan materiyaning, ya‘ni inson miyasining mahsulidir. Lekin ongning bo‘lishi uchun miyaning o‘zigina bulishi yetarli emas. Ong insonni qurshab turgan tabiiy va ijtimoiy muhit bilan chambarchas bog‘langan va shu muhitning ta‘sirida faoliyat ko‘rsata oladi.

Hozirgi zamonda murakkab ijodiy jarayonlarni ham amalga oshiruvchi elektron mashinalar yaratilgan, lekin ular ongning o‘rnini bosa olmaydi, chunki ong o‘ta murakkab obyektiv mavjudlikdir.

Psixika (qadimgi yunoncha psychikos-“ruhiy”) yoki ruhiyat yuksak darajada tashkil topgan materiya (miyya)ning voqelikni alohida shaklida aks ettirishdan iborat xususiyati. Ong- psixik faoliyatning oliy shakli ong bu insonni boshqa tirik mavjudotlardan farqlab, ajratib turadigan muhim narsa.

Inson yaralibdiki ong mavjud va rivojlanib keladi. Men ong haqida va uning paydo bo‘lishi haqida shuni aytamanki inson ongi uni rivojlanishlar, yuksalishlar sari eltadi. Faqatgina inson o‘z ongini yangilab, charxlab ya‘ni uni ilm nurlari bilan chayib turmog‘i kerak. Insonning ongi qanchalik yangi g‘oyalarga boy bo‘lsa , bu jamiyat, dunyo rivojlanishiga ulkan bir hissa qo‘shishi mumkin.



Ongning paydo bo'lishi bilan bog'liq ko'plab qarashlar mavjud. Bu qarashlarning bir tomoni diniy, qarashlar doirasidagi mifologik nazariyalarga borib taqaladi. Bunday turdagi nazariyalar qadimdan insonni bir ilohiy kuch yaratgan, bu ilohiy kuch inson ongini ham yaratgan degan fikrlarni ifodalaydi. Ko'pgina dinlarda inson ongi buyuk ilohiy aqilning namoyon bo'lish shakli tarzida tavsiflanadi. Bunday qarashlarning ildizi juda qad bo'lsada ular hamon o'z tarafdorlariga ega.

Ong insonning fikr va hislari, sezgilari tasavvurlari, irodasi va qarashlaridan tashkil topgan. O'z-o'zini anglash xotira, iroda, nutq ongning asosiy jihatlari. Ong o'ta murakkab obyektiv mavjudligidir. Hozirgi kunda insonlar ongni materiyaning uzoq davom etgan evakuatsiyasining natijasi deb hisoblashmoqda. Materiya, tabiat har doim mavjud bo'lib kelgan inson esa moddiy dunyoning nisbatan so'ngi taraqqiyotining mahsulidir. Ong esa ushbu mahsulning eng kerakli nuqtasi. Ong nafaqat insonni balki inson atrofini o'rab turgan butun olam rivojining markazidir.

Insonsiz olamni tasavvur etib bo'lmaganidek insonni ongsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Psixika materiya taraqqiyotining muayyan bosqichda–tirik organizmlarda sezuvchanlikning alohida shakli yoki his qilish qobiliyatining paydo bo'lishi bilan vujudga kelgan. Tirik mavjudotlarning morfologik, fiziologik tuzilishi murakkablashivu unda nerv sistemasining vujudga kelishi va taraqqiy etishi bosh miyya, uning katta yarim sharlarining shakllanishi va takomillanishi jarayonida rivojlangan. Inson ongi insonning ehtiyojlarini bartaraf etish jarayonida rivoj topadi. Madaniy-tarixiy yondashuvga ko'ra ongning o'ziga xos xususiyati shundaki, ijtimoiy-tarixiy amaliyot elementlari obyektiv voqelik va ong o'rtasidagi oraliq bo'g'in bo'lib dunyo haqidagi obyektiv g'oyalarni shakllantirishga imkon beradi.

Ong mohiyatini to'g'ri tushinish uni ko'rib chiqishi lozim. Ong quyidagi to'rt muhim psixologik xarakteristikasi bilan aniqlanadi. Ongning birinchi xarakteristikasi uning nomini aks ettiragan ong, anglashdir. Ongning ikkinchi



xarakteristikasi unda sub'ektiv va obe'tiv farqlanadi. Ongning uchinchi harakteristikasi maqsad qo'yish va maqsadga yo'nalganlik bilan belgilanadi. Ongning to'rtinchi xarakteristikasi unda odamning ma'lum munosabatlari aks etishi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, ong bu inson uchun berilgan eng nafis, eng buyu ne'matdir. Ong insonning yuksak ma'naviyat sari eltadigan bir narvon deyish mumkin. Inson ongsiz hayot kechirishi uni qay ahvolga olib kelishini o'ylashning o'zi inson vahmini keltiradi. Buni biz Qirg'iziston xalq yozuvchisi Chingiz Aytmatovning "Asrga tatiguvlik kun" asari qahramoni Jo'lomon misolida ko'rishimiz mumkin. Ongsiz inson manqurtga aylanadi va buning natijasi tevarak-atrofidagi insonlarga ham ta'sir etmay qolmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. P.I.Ivanov.M.E.Zufarova Umumiy Psixologiya
2. G'oziyev E "Umumiy psixologiya" 1-kitobi Toshkent 2004
3. Ashurova, S.F., & qizi Karimova, M. N. (2023). OILADA O'SMIRLARNING SOG'LOM TURMUSH TARZI VA OILAVIY HAYOT HAQIDAGI TASAVVURLARI SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(5), 363-368.
4. Ashurova, S. F. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK QO'LLAB-QUVVATLASHDA PSIXOLOGIK XIZMATNING O'ZIGA XOS JIHATLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(9), 418-421.
5. qizi Ashurova, S. F. (2023). OILADA YOSHLARNING SOG'LOM TURMUSH TARZIGA MUNOSABAT SHAKLLANISHINING PEDAGOGIKPSIXOLOGIK OMILLARI MUAMMO SIFATIDA. Educational Research in Universal Sciences, 2(10), 32-35.